




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

“OYCHINOR” DOSTONINING FONETIK DIALEKIZMLARI TAHLILI

ANALYSIS OF PHONETIC DIALECISMS OF THE EPISTLE "OYCHINOR"

Dilnoza RAIMBERDIYEVA,

ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NLRI9494

Annotation: *By studying the language of the epic poem "Oychinor" from a dialectological perspective, it becomes possible to identify phonetic, morphological and lexical units related to the dialect in the poem. Through phonetic dialectisms, changes in the pronunciation of sounds, the replacement or omission of certain sounds are observed. The phonetic phenomena observed in the epic helped to reveal the features of the Kipchak dialect.*

Key words: *dialectisms, phonetics, folk epics, "Oychinor" epic, Uzbek dialects, Kipchak dialect.*

“Oychinor” dostoni tilida dialektizmlar muhim o‘rin tutadi. Doston xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lganligi sababli uning tilida adabiy til me‘yorlari bilan birga jonli xalq nutqiga xos shakllar ham keng uchraydi.

Doston matnida fonetik dialektizmlarni ko‘rsatishda so‘zlarning yozilishi, talaffuzga yaqin berilishi va shevaga xos shakllariga e‘tibor qaratish lozim. Ayrim so‘zlar hozirgi adabiy til shaklidan farqli ko‘rinishda uchraydi.

Doston tilida qadimiy fe‘l shakllari va xalqona talaffuz ko‘rinishlari alohida e‘tiborga molik. Masalan, *aldab-suldab, to‘g‘a, chaydish, barmoshog‘, chibich, tom, havo‘rlar, murti, harpo‘sh, irisqim, betak, uzaber, jiladi, enkayib, narmag‘an, illa, g‘ajir* kabi shakllar hozirgi adabiy tilimizda muqobil variantlar asosida mavjud bo‘lgan va bo‘lmaganlari ham bor. Bu shakllar kunimizgacha o‘zining ham dialektal, ham tarixiy qiymatini aslo yo‘qotmagan.

Fonetik dialektizmlarning yana bir ko‘rinishi ayrim so‘zlarda tovushlarning qisqarishi yoki tushib qolishida ko‘rinadi. Masalan, *chayduu* yokida *choyduu* shaklida uchraydigan narsa-buyum otiga to‘xtalsak, bu so‘z adabiy tilimizda *choynak, qumg‘on, oftoba* ko‘rinishida uchraydi. Ammo qadimiy kelib chiqishidan tahorat yoki yuz-qo‘l yuvishga suv qaynatib qo‘yish uchun ishlatiladigan *choy idishi* bo‘lgan va hozirda qipchoq shevalarida choydish, chaydish shaklida faol termin sifatida qo‘llaniladi. Dostonda:

Гулни кўрса эшак бориб чайнайди,

Ўтти кўрмай ердан **чайдиш** қайнайди....

Qahramonlar nutqining jonli chiqishi uchun xalq og‘zaki nutqiga yaqin so‘zlar qo‘llanadi. qaytib kabi shakllar dostonning oddiy xalq nutqiga yaqinligini ko‘rsatadi.

Dostondagi fonetik dialektizmlarni tahlil qilishda ularning badiiy vazifasini ham hisobga olish zarur. Dostonlar tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan og‘zaki badiiy asardir.

Fonetik dialektizmlar ayrim hollarda soʻzning maʼnosini oʻzgartirmaydi, faqat uning talaffuz shaklini farqlaydi. Adabiy tilda bir shaklda aytiladigan soʻz shevada boshqacha talaffuz qilinishi mumkin, ammo asosiy maʼno saqlanib qoladi.

Dostondagi fonetik hodisalar dostonning mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qilib qolmay, qipchoq areali birliklarning ham goʻzal namunasidir. Quyida bir necha dialektal hodisalarni koʻrib chiqamiz:

Toʻliqsiz assimilatsiya: кеписиз, тайлайди, кечка кечаси, кейти;

Dostonda toʻliqsiz assimilatsiya hodisasini koʻp oʻrinlarda uchratamiz. Yuqoridagi kabi feʼllar asosan dostonning sheʼriy qismida uchraydi.

Toʻliq assimilatsiya: отти, тупроққа, бекка, оққинам, тўққинам, ўғидай;

Qipchoq lahjalarida koʻp kuzatiluvchi hodisalardan biri boʻlib, dostonda nasrda ham sheʼriy qismda ham faol qoʻllanilgan.

Spontaj oʻzgarishlar: сариз, торат сув, сачоғ, авваласи, шумнийиб, чайдиш;

Doston matni adabiy tilga moslashtirib yozib olingani sababli spontaj oʻzgarishli soʻzlarni topish biroz muammoli boʻladi, ammo ular dostonda mavjud va qatnashgan oʻrinlarida dostonning sheva xususiyatini yanada ochiq namoyon qilgan.

Sandhi: шўйтиб, узабер, айтабер;

Dostonning ayrim qismlarida koʻzga tashlanadi. Asosan nasriy qismida uchratishimiz mumkin.

Proteza: ириқим;

Doston davomida faqat bir oʻrinda proteza hodisasi kuzatiladi.

Talaffuzda kelishi bilan birga, uning leksik maʼnosi ham mahalliy boʻlishi yoki grammatik shakli ham adabiy tildan farq qilishi mumkin. Bundan tashqari dostonda unlilar va undoshlarning almashinuv holatlari bisyordir:

Unlilar uygʻunligi: нага- нега, эна-она, авваласи-аввалоси;

Undoshlar uygʻunligi: тейди-тегди, бойлади-боғлади, жилади-йиглади, ганди-ганни, тувгандай-тувгандек, қиблагойим-қиблагохим.

Xulosa qilib aytganda, “Oychinor” dostonida fonetik dialektizmlar doston tilining xalqona, ogʻzaki va epik xususiyatlarini ochib beruvchi muhim til birliklaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ойчинор. Айтувчи: Қодир Раҳимов. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи: Абдумўмин Қаҳҳоров. – Т: Фафур Фулом, 1984. – 105 б.
2. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 175 b.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – 372 б.
4. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. – 140.
5. Tilavova B. “Oychinor” dostonining til xususiyatlari// Samarqand, 2016.
6. Аширбоев С. Ўзбек миллий транскрипсиясини яратилиши йўлида// Олтин Битиклар тўплами. – Тошкент, 2024.
7. Qoʻziboyeva G. S. Qipchoq dialekti tarkibida undosh fonemalar tasnifi// Экономика и социум. 2021. – №12.